

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.U.Xamidjanov</b>	
Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatli o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
<b>A.A.Parmonov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili .....	90
<b>M.A.Tursunboyeva</b>	
Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi .....	97
<b>M.I.Boymanova</b>	
Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish .....	102
<b>A.Matkarimov</b>	
O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida) .....	105
<b>N.M.Xodjibolayeva</b>	
Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari .....	110
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi .....	114
<b>N.Sayimbetova</b>	
Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	117
<b>A.Abdullayev</b>	
Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi .....	121
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati.....	125
<b>S.Abdullayev</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni.....	129
<b>D.O.Djalilova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati.....	138
<b>M.M.Азизов</b>	
Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба? .....	141
<b>L.Z.Xolmurodov</b>	
9-10 yoshdagi bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari.....	147
<b>I.M.Saidov</b>	
Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi .....	151
<b>O.A.Xo'jaqulov</b>	
Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari .....	155

---

FALSAFA

<b>A.A.Qambarov</b>	
Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili .....	161
<b>B.B.Namozov</b>	
Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida .....	166
<b>M.T.Voxidova</b>	
Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari.....	172
<b>I.M.Arzimatova</b>	
Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari .....	176

**O'QUVCHILARNING TA'LIMDAGI MUVAFFAQIYATINI TA'MINLASHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK OMILLARI (XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI MISOLIDA)****СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСПЕХОВ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАНИИ (НА ПРИМЕРЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ)****SOCIAL AND PEDAGOGICAL FACTORS OF ENSURING STUDENTS' SUCCESS IN EDUCATION (BASED ON THE EXAMPLE OF INTERNATIONAL ASSESSMENT STUDIES)****Matkarimov Akramjon<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

*Maqolada o'quvchilarning ta'limda muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari tahlil qilingan. Ilmiy tahlil xalqaro baholash tadqiqotlari misolida asoslangan.*

**Аннотация**

*В статье анализируются социально-педагогические факторы обеспечения успешности учащихся в образовании. Научный анализ основан на примере международных оценочных исследований.*

**Abstract**

*The article analyzes the socio-pedagogical factors of ensuring the success of students in education. Scientific analysis is based on the example of international evaluation studies.*

**Kalit so'zlar:** ta'limdagi muvaffaqiyat, ijtimoiy-pedagogik omillar, ta'lim mazmuni, xalqaro baholash tadqiqotlari

**Ключевые слова:** образовательный успех, социально-педагогические факторы, содержание образования, международные оценочные исследования.

**Key words:** educational success, socio-pedagogical factors, educational content, international evaluation studies

**KIRISH**

Bugungi kunda respublikamizda milliy ta'lim mazmunini takomillashtirish, maktab ta'limini isloh qilishda o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarning dolzarbligi ortib bormoqda. Buning uchun pedagogik nuqtai nazardan o'quv dasturlari, darsliklar, o'qitish metodikasi va ta'lim natijalarini baholash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo'yicha islohotlar olib boriish zarurat bo'lib borayotgan bo'lsa, ijtimoiy jihatdan o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashda oila institutini ahamiyatini oshirish, maktab va oila hamkorligini mustahkamlash, ta'lim olishdagi ijtimoiy tenglik kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Ta'lim – nafaqat o'quvchilarga biror narsani o'rgatish, balki ularga tobora murakkablashib va o'zgarib borayotgan dunyoda, o'ziga bo'lgan ishonch bilan ildam harakatlanish uchun yordam beradigan zaruriy imkoniyatlar bilan ta'minlash jarayonidir [12.27]. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlarni joriy etish, mavjud tizimni qiyosiy tahlil qilish va zamon talablariga javob beradigan milliy baholash tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega [11. 21].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim mazmunini Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD) xalqaro baholash dasturlari (Progress in International Reading and Literacy Study – PIRLS), Trends in International Mathematics and Science Study – TIMSS), The Programme for International Student Assessment – PISA), The Teaching and Learning International Survey – TALIS) [7. 4] talablariga moslashtirish orqali o'quvchilarni intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishga e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim subyektlarining salohiyatlarini birlashtirish, umumiy o'rta ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qaror toptirish, o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatining ijtimoiy-pedagogik omillarini tadqiq etish orqali ta'lim samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va olimlari tomonidan xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy ta'lim tizimiga tadbiiq etishning ijtimoiy-pedagogik asoslariga doir fundamental va amaliy

tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda xalqaro baholash tadqiqotlarini milliy ta'lim tizimiga tadbiq etish va bu orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ularda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan hayotiy-amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga tayyorlash ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi sifatida qayd etilmoqda. Buning uchun milliy ta'lim tizimi mazmunini tashkil etuvchi: o'quv dasturlari, darsliklar, o'qitish metodikasi va ta'lim natijalarini baholash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganilmoqda va bosqichma-bosqich tadbiq etilmoqda. Boshqa tomondan o'quvchilarning ta'lim olishda ijtimoiy tenglik tamoyiliga muvofiq sifatli ta'lim olishi va bu orqali mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'rishi, ularda qaror qabul qilish, kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini tarkib toptirish islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Xalqaro baholash tadqiqotlari Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tashabbusi bilan tashkil etiladi. Tadqiqotlarning maqsadi o'quvchilarning kelajakda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotga tayyorgarlik darajasini baholash hamda shakllanib borayotgan inson kapitalini prognoz qilishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda baholash tadqiqotlari o'ziga xos metodologik yondashuvga ega. Tadqiqotlarda qo'llaniladigan topshiriqlar hamda maktab rahbariyati, o'qituvchilar, o'quvchi va ularning ota-onalari uchun taqdim etiladigan savolnomalar orqali o'quvchining ma'lum bir fanga doir bilimlari emas, balki egallanayotgan bilimlarning mustaqil hayotda qo'llay olishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga tayyorgarlik darajasini, jamiyat talablariga mos kompetensiyalarni egallayotganligini aniqlashdan iborat.

O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini aniqlash va ularning xalqaro darajada qiyoslashga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar jahonning bir qator tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari tomonidan, jumladan Iqtisodiy Hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Ta'limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA), Niderlandiya milliy ta'lim sohasidagi baholash instituti (Netherlands National Institute for Educational Measurement, CITO) (Niderlandiya), AQSH pedagogik baholash xizmati (Educational Testing Service, ETS) (AQSH), Yaponiya ta'lim sohasidagi tadqiqotlar milliy instituti (National Institute for Educational Research, NIER) (Yaponiya), Munchen Texnika universiteti (Germaniya), Rossiya ta'lim akademiyasining ta'limni rivojlantirish strategiyalari instituti (ISRO RAO) (Rossiya), Qozog'iston Respublikasi ta'lim va fan vazirligi qoshidagi ta'lim statistikasi va baholash milliy markazi (Qozog'iston) [13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20,21] kabi institutlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Xalqaro baholash tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitalini rivojlanganligining mavjud va zaruriy holatini umumta'lim muassasalari o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini shakllanganlik darajasi, ularning ta'lim olishining ijtimoiy-pedagogik jihatlarga bog'lagan holda aniqlaydi. Pedagogik amaliyotda xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga tadbiq etish samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalari o'rganilganligi hamda shu jihatlarni hisobga olgan holda ta'limdagi islohotlarni rejalashtirish bilan uzviy bog'liq.

Xalqaro baholash tadqiqotlarida o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy aspektlari ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholanadi. Mazkur mezonlarga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining ijtimoiy kelib chiqishi;
- ta'lim olishning o'z hayotidagi ahamiyati tushunishligi;
- „umumta'lim muassasasi-oila hamkorlik mexanizmi“ning samaradorligi;
- oilalarda ta'limiy qadriyatlarining rivojlanganligi;
- ijtimoiy, akademik va madaniy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanishning mavjud holati[6. 24].

TIMSS xalqaro baholash tadqiqoti dunyoning eng uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan, o'quvchilarning matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha yutuqlarini baholash dasturi[4. 16]. Ushbu tadqiqot Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS Xalqaro Ta'lim Markazi tomonidan boshqariladi. TIMSS tadqiqoti 1995-yildan buyon butun dunyo bo'ylab matematika va tabiiy fanlar bo'yicha yutuqlar tendensiyalarini kuzatib boradi va bunda siyosatshunoslarni, ta'lim sohasi vakillarining ta'lim tizimlari va dasturlari to'g'risida dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishida foydalanadigan yuqori sifatli ma'lumotlarni to'playdi [9. 21].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qib tushunish darajasini baholash bilan birgalikda PIRLS o'quvchilarning o'qish uchun uchun o'rganishlarida uy va maktabda yaratilgan muhit haqida ma'lumot to'plashdek katta vazifani bajaradi. O'n yillar mobaynida ta'lim sohasida olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, to'rt marotaba o'tkazilgan PIRLS baholash sikli natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan imkoniyat ko'lemi va ta'lim olish muhiti ularning o'qib o'zlashtirishlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, ularning yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ko'rsatishlari uchun ko'proq imkoniyat va har tomonlama ko'mak bera oladigan muhit yaratadi. Hozirga

## PEDAGOGIKA

qadar o'tkazilib kelinayotgan har bir PIRLS baholash dasturida (2001, 2006, 2011 va 2016) o'quvchilarning maktabda va maktabdan tashqarida o'qib tushunish ko'nikmalarini PIRLS xalqaro tadqiqotida ta'lim jarayoni bilan bog'liq omillar va o'quvchilarning turli yillardagi natijalari solishtirma tahlili rivojlantirilishi haqida to'plangan ko'plab ma'lumot va o'quvchilarning o'qib o'zlashtirish darajasini yuqori saviyada baholanishi ularning o'qib ta'lim olishlarini qay darajada yaxshilash borasida tadqiqotlar olib borishga asos bo'lib xizmat qildi. Endilikda qator o'tkazilib kelinayotgan PIRLS baholash dasturi natijalarini inobatga olib, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarida yuzaga kelgan o'zgarishlardan ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar yoki amaliy tadbirlar bu borada qabul qilingan yondashuvlarga o'z samarasini berishi yoki bermasligi haqida ishonarli dalil bo'lib xizmat qiladi[10. 18].

Qator olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, PIRLS dasturi natijalari o'quvchilarning o'qish fanidan yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatishida ota-onalarning farzandlarini ilk yoshidan boshlab oilada savodxonlikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib berdi. Mazkur mashg'ulotlarga misol qilib kitob mutolaa qilish, hikoyalar aytish, alifboli o'yinchoqlarni o'ynash, boshqa bolalar bilan muloqot qilish, bolalarni harflar va so'zlarni yozishiga ko'maklashish hamda belgilar va turli yoriqlarni ovoz chiqarib talaffuz qilish kabilarni o'z ichiga oladi[2. 16].

PIRLS xalqaro dasturida o'rganish jarayonida maktab bilan bog'liq omillar haqida ma'lumotlar to'planadi. Bularga ta'lim uchun bevosita va umumiy tarzda mo'ljallangan mavjud o'quv inventarlari, o'rganish uchun maktabda yaratilgan muhit, maktabdagi xavfsizlik va ma'lum tartibni joriy qilinganlik darajasi va o'qish ko'nikmasini hosil qilishda maktab tomonidan qaratilgan e'tibor kabilarni kiradi. Yaratib berilgan yetarlicha ishlash sharoiti, qulayliklar va o'quv inventarlari maktablarda ko'ngildagidek ta'lim olish muhitini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega[5. 56].

Davlat va maktab miqyosida olib boriladigan islohotlar o'quv dasturlarini belgilab beradi. Davlat miqyosida tuzilgan o'quv dasturlarining maktablarda joriy etilish ko'lami maktabda tuzilgan o'quv dasturida o'z aksini topadi. Har bir baholash siklida PIRLS dasturida maktab direktorlaridan maktablarning boshlang'ich sinflarida o'qitiladigan o'qish fanidan tuzilgan o'quv dasturlari hamda maktabda muayyan o'qish ko'nikmasi va strategiyasini hosil qilishda nimalarga e'tibor qaratilgani haqida ma'lumotlar so'raladi. Mazkur ko'nikmalarga o'quvchilarning alifbo harflarini bilishidan tortib matn muallifining dunyoqarashi yoki maqsadini aniqlash kabi murakkabroq ko'nikmalar kiradi. O'quvchini yoshligidan o'qishga rag'batlantirilishi o'qish fanidan tahsil beradigan o'qituvchilar uchun muhimdir, chunki o'qish uchun rag'batlantiriladigan o'quvchilar yaxshi o'qish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Insonning o'z ichki imkoniyatlarini aniqlash nazariyasiga ko'ra, rag'batlantirish jarayoni o'quvchida mavjud bo'lgan tegishlilik, raqobatlashish va erkinlik hissini rivojlantirish orqali qulay muhit yaratib berish orqali o'quvchilar rag'batlantirilishi mumkin. Haddan ziyod nazorat qilinadigan sinf muhiti o'quvchini rag'batlantiruvchi kuchga to'sqinlik qilishi mumkin, chunki u o'quvchidan erkinlik hissini tortib oladi. O'qituvchilarni erkin o'qish ko'nikmasini hosil qilish usullaridan biri o'quvchilarga o'zlarini qiziqtirgan matnlarni berishdan iborat. Bundan tashqari, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'rnatilgan munosabat o'quvchini rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. PIRLS dasturida o'qituvchilardan o'quvchilarni rag'batlantirish uchun turli mashg'ulotlarni berib borishi, ularga o'zlari tanlagan matn yoki materialni o'qish uchun ajratilgan vaqt hamda o'quvchilarga matn muhokama qilishlari uchun rag'batlantirish haqida so'raladi[3. 25].

O'quvchilarning o'rgangan bilimlarini „amaliyotda qo'llay bilish, tanqidiy fikrlash va berilgan materialni tahlil qila olish“[1] kabi ko'nikmalarini baholash kabi ta'lim mazmunidagi funktsional o'zgarishlar o'quvchilarning nafaqat umumiy o'rta ta'lim muassasasida, balki jamiyatda, oilada o'rganish faoliyatini tubdan o'zgartirish, intensivlashtirishni taqozo etadi.

Oiladagi ta'lim muhitni shakllanishida kitob, kitob mutolasining ahamiyati katta. Ilmiy adabiyotlar tahlili oiladagi kitoblarga bo'lgan ijobiy munosabat farzandlarning kognitiv rivojlanishida quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

- atrof-muhitni, dunyoni va o'z-o'zini anglashga yordamlashadi;
- yodda saqlash va o'ylash qobiliyatini rivojlantiradi. Ya'ni, ko'p kitob o'qigan odamning yodda tutish darajasi yaxshi, tez o'ylab, tez xulosa chiqaradigan bo'ladi;
- talqin qilish, analiz yasashga va shaxsiy fikrning shakllanishiga yo'naltiradi;
- ko'pgina yutuq va muvaffaqiyatlarga asos bo'ladi;
- odamlar bilan to'g'ri muomala qilishga o'rgatib, to'g'ri gapirishni shakllantiradi;
- so'z boyligini va savodxonlik darajasini oshiradi;
- bolalar yashirinib yotgan ijodiy qobiliyatni yuzaga chiqaradi.

Xalqaro baholash tadqiqotlari umumta'lim maktab o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarining rivojlanganligini baholaydi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha

umumta'lim fanlari bir vaqtning o'zida fanga oid va tayanch kompetentsiyalarni shakllanishini maqsad qiladi. Bu ikki kompetentsiya «tarmoq» xarakteriga ega bo'lib, bir-birini to'ldiradi va uzviylikka ega bo'ladi. PISA xalqaro baholash dasturida «literacy» atamasi ishlatilgan bo'lib, o'zbek tilidagi «savodxonlik» atamasiga to'g'ri keladi. Mazkur atama o'quvchining jamiyat hayotiga tayyorgarligini belgilab beruvchi tayanch kompetentsiyalari majmuasini anglatadi [8.266]. «Savodxonlik» atamasi ma'lum bir fan doirasida shakllangan kompetentsiyalar emas, o'quvchining jamiyatda o'z o'rnini topishi, kasbiy faoliyatini yo'lga qo'yishi, shaxsiy rivojlanish ko'nikmasiga egaligi, jamiyatga, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotga, texnika, texnologiyaga nisbatan munosib munosabatini shakllanganligi, «faol fuqaro», «yuqori saviyali iste'molchi», «atrof-muhit va resurslardan oqilona foydalanuvchi» kabi vazifalarni egallash uchun zaruriy bo'lgan kompetentsiyalar nazarda tutilgan.

Xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy ta'lim tizimiga tadbiiq etishning **ijtimoiy-pedagogik** zarurati quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

**Taqqoslash imkoniyati:** Xalqaro baholash tadqiqotlarida qatnashuvchi davlatlar o'z milliy ta'limini boshqa davlatlarniki bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa milliy ta'lim tizimining kuchli va kuchsiz tomonlari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish hamda ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'nalishlarni identifikatsiya qilish imkoniyatini yaratadi.

**Ilg'or tajribalar almashinuvi:** Milliy ta'lim tizimini boshqa davlatlar bilan taqqoslash orqali amaliyotga tadbiiq etilgan ilg'or tajribalarni o'rganish hamda milliy ta'lim tizimi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda joriy qilish mumkin bo'ladi.

**Islohatlarni tezlashtirish:** Xalqaro baholash tadqiqotlarining natijalari ta'lim siyosati uchun mas'ullarning ta'lim islohatlarini jadallashtirish borasida faoliyatini tezlashtirishga, ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar borasida qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Ayniqsa bu ta'lim sifatini oshirish, ta'lim olishdagi tenglikni qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy-pedagogik maqsadlarni ko'zlaydi.

Ilmiy-empirik ma'lumotlarga ega bo'lish: Xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish boshqa davlatlarning pedagogik ilmiy tadqiqotlari natijalarini amaliyotga tadbiiq etilishi holati yuzasidan ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Ilmiy-qiyosiy tahlillar milliy ta'lim tizimidagi yangi ilmiy loyihalarni shakllantirish uchun muhim impuls vazifasini o'taydi.

**Shaffoflik va mas'uliyatlilik:** Xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish ishtirokchi davlatlardan shaffoflik va mas'uliyatlilikni majburiyat sifatida qaralashini talab etadi. Shu jihatdan olib qaraganda, natijalar keng jamoatchilikka ochiq va oshkora taqdim etiladi. Bu esa mavjud ta'lim tizimi xususida jamoatchilikning fikrini o'rganish uchun qulay imkoniyatni yaratadi.

#### XULOSA

Xalqaro baholash tadqiqotlarini milliy ta'lim tizimiga tadbiiq etish ijtimoiy tenglik, talim sifati, ta'lim tizimiga ijtimoiy sohada innovatsiyalarni tadbiiq etish hamda ilmiy dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishni rag'batlantirish nuqtai nazaridan ijtimoiy-pedagogik zaruratdir. Xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy ta'lim tizimiga tadbiiq etishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari quyidagilar:

**Ijtimoiy tenglik:** Xalqaro baholash tadqiqotlarining natijalari ishtirokchi davlatlar ta'lim tizimini taqqoslash orqali milliy ta'lim tizimi negizida ijtimoiy tenglikning real holatini baholash imkoniyatini beradi. Jumladan qizlar va o'g'il bolalar, shahar va qishloq maktabidagi o'quvchilar, moliyaviy jihatdan ta'minlangan va kam ta'minlanganlar o'rtasidagi farqlarni taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tenglik sohasidagi ilg'or tajriba va innovatsion yondashuvlarni milliy ta'lim rivojlanish tendentsiyalari va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda tadbiiq etish borasida g'oyalarni shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa ta'limdagi ijtimoiy tengsizlik borasidagi muammolarni hal qilishga, barcha o'quvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratilishiga yordam beradi.

**Ta'lim sifatini ta'minlash:** Xalqaro baholash tadqiqotlari ilg'or tajribalar haqida tushuncha beradi va ta'lim sifatini oshirish uchun qanday choralar ko'rish mumkinligini ko'rsatadi. Bu milliy ta'lim tizimiga sifat standartlarini belgilash va doimiy takomillashtirishga xizmat qilish imkonini beradi.

**Ijtimoiy innovatsiyalar:** Boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribalari va pedagogik amaliyoti bo'yicha ma'lumotlar almashish milliy ta'lim tizimida ijtimoiy innovatsiyalarni rag'batlantirishga olib keladi. Bu o'quv jarayonini takomillashtirish va o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun yangi o'qitish usullari, pedagogik yondashuvlar va yangi texnologiyalarni integratsiyalashuvini o'z ichiga oladi. Shuningdek, umumta'lim maktabalarining ota-onalar, ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorligi bo'yicha yangi faoliyat turlarini shakllanishiga sabab bo'ladi.

**Ta'lim sohasidagi ijtimoiy masalalarga doir qarorlar qabul qilish:** Xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari ta'lim sohasida ilmiy dalillarga asoslangan siyosiy qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ular ta'lim sohasidagi islohatlarning samaradorligini obyektiv baholashni, ta'lim samaradorligini ta'minlashning ijtimoiy omillarini hisobga olishni, resurslarni taqsimlash, ta'lim sohasining barqarorligi va kelajagiga doir asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

## PEDAGOGIKA

Xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari va ularning turli davlatlardagi ilmiy tahlili asosida o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi ularning ta'limdagi muvaffaqiyati bilan chambarchas bog'liqligini, milliy ta'lim tizimi samaradorligi uning ijtimoiy jihatlarini hisobga olinishi va doimiy ravishda ta'lim tizimiga doir muammolar bilan birgalikda ijtimoiy masalalarni ham o'rganib borishni taqozo etishini yaqqol ko'rsatadi. Ta'limdagi ijtimoiy tengsizlikning sabablari xilma-xil va murakkabd tushunchadir. Milliy ta'lim tizimi sohasiga doir ta'lim siyosati bu kabi ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega, ammo bu barcha ijtimoiy muammolarni hal qilinishida yagona yechim bo'la olmaydi. Ta'limga doir ijtimoiy muammolar umumta'lim maktablarining jamiyatning boshqa institutlari bilan hamkorligi, o'qituvchilarni tayyovlash va malakasini oshirish, jamiyatdagi iqtisodiy resurslarni taqsimoti hamda ta'limni moliyalashtirish, ta'limning ahamiyatini qadriyatlar darajasiga kotarilganligi kabi masalalar bilan o'rganish barobarida ijtimoiy masalalar hal bo'lib boradi. Ta'lim sohasidagi vazirliklar, boshqarmalar ta'lim muammolarini barchasini hal qiluvchi yagona institute deb qaramaslik lozim bo'ladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida“gi PF-79- son Farmoni
2. Axborotnoma3. [www.markaz.tdi.uz/ISBN9789943696020/bb\\_9-17](http://www.markaz.tdi.uz/ISBN9789943696020/bb_9-17) [www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz)
3. Eivers, Eemer, Lorraine Gilleece, and Emer Delaney. Reading achievement in PIRLS 2016: Initial report for Ireland. Dublin: Educational Research Centre, 2017.
4. Martin, Michael O., et al. TIMSS 2011 International results in science. International Association for the Evaluation of Educational Achievement. Herengracht 487, Amsterdam, 1017 BT, The Netherlands, 2012.
5. Mullis, Ina VS, Michael O. Martin, and Eugenio J.Gonzalez. PIRLS 2001 international report. Boston: International Study Center, 2003.
6. OECD. learning for life. First results of the school performance study PISA2000 // <http://www.oecd.org/education/school/programmeforinternationalstudentassessmentpisa/33691612.pdf> . – p. 24.
7. OECD. Measuring student knowledge and skills. A new Framework for Assessment. OECD, 1999.
8. Reiss K., Weis M., Klieme E., Köller O. PISA 2018. Grundbildung im internationalen Vergleich // 1.Auflage. Münster: Waxmann, 2019. -p.266.
9. Richardson, Mary, et al. "Trends in International Maths and Science Study (TIMSS) 2019 National Report for England." (2020).
10. Trong, K. (2009). Using PIRLS 2006 to measure equity in reading achievement internationally (Doctoral dissertation, Boston College). Retrieved from <https://dlib.bc.edu/islandora/object/bc-ir:101608>
11. Исмаилов А. А. Ўқувчиларнинг ютуқларини халқаро тадқиқот дастурлари асосида баҳолаш//Konferentsiya materiallari, 21-26 betlar
12. Шляйхер А. Образование Мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? //Издательство Национальное образование. ФИОКО Москва. 2019. - 27с.
13. <https://www.oecd.org/>
14. <https://www.iea.nl>
15. <https://cito.com/>
16. <https://www.ets.org/>
17. <https://www.nfer.ac.uk/>
18. <https://www.nier.go.jp>
19. <https://www.pisa.tum.de/en/pisa/>
20. <https://instrao.ru/>
21. <https://www.gov.kz/memleket/entities/edu?lang=ru>